

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH JIHATLARI

Kamolova Shirin Usarovna

Jizzax davlat pedagogika institute Umumiy psixologiya kafedrasida katta
o'qituvchisi,

O'skanov Mirsaid

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqola bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish jihatlari masalalariga qaratilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy xususiyatlari, kasbiy tayyorgarlik jarayoni, pedagogik qobiliyatlar muammosiga asoslanib yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qobiliyat, kommunikativ va pedagogik qobiliyatlar, trening, muloqot, nutq, fikr, ta'lim –tarbiya.

АННОТАЦИЯ

Это статья является одной из наиболее актуальных тем, посвящена важности формирования навыков общения для учителей начальных классов и основанные проблемы педагогических навыков.

Ключевые слова: Способность, коммуникативные и педагогические способности, тренинг, общения, речь, навыки обучение.

ABSTRACT

The article is one of the most topical issues of today, focusing on the development of communicative skills in primary school teachers. It covers the professional characteristics of primary school teachers, the process of professional training, and the problem of pedagogical skills.

Keywords: Ability, communicative and pedagogical skills, training, communication, speech, thinking, education.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktyabrdagi PF 5847-son hamda "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorlariga asosan,

zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish kabi dolzarb masalalar qo'yilgan.

“Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talaba (yoki o‘quvchi)ning dasturiy bilim, tasavvur va ko‘nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o‘quv faniga qiziqishga kuchaytirish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg‘ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir”.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda ta’lim sohasiga faqatgina o‘qimishli, diplomga ega inson emas, balki pedagogik kommunikativ qobiliyatli voqeylikni oldindan ko‘ra oladigan, to‘g‘ri qaror qabul qilish mahoratiga ega, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan, oqil va barkamol insonni tarbiyalash muammosi qo‘yilmoqda.

Bu borada hurmatli yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning “Hayotimizning eng muhim jabhalari uchun yuksak texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar yaratish, malakali mutaxassislar tayyorlash, jahon axborot texnologiyalari bozorida munosib o‘rin egallash masalasiga ustuvor ahamiyatga ega vazifa sifatida qarashimiz zarur”, degan fikrlarini aytib o‘tish joyizdir. [2.16].

Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan sifat vazifalarni egallagan, yangicha fikrlaydigan kommunikativ qobiliyat egasi bo‘lgan, ijtimoiy faol bo‘lgan pedagoglarni talab qilmoqda. Ana shunday qator muammolarni hal etishning eng muhim omillaridan biri bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy xususiyatlarini va kasbiy tayyorgarlik jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug‘ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta’sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi”. [1.69]. Shunga binoan mamlakatimiz ta’limi sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga etkazishdir.

Bu borada, Rossiya psixologlaridan N.V. Kuzmina, V. Slasenin, F.N. Gonobolin, O‘zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o‘qituvchilar uchun eng zarur hislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A. Jabborov, M.Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham o‘qituvchilik kasbi va ta’lim jarayoniga doir muammolar keng tadqiq etilgan.

O'qituvchilik kasbi - axloqiy xarakterga ega bo'lgan insonparvar kasblardan biri bo'lib, o'quvchilarga insoniy munosabatda bo'lish o'qituvchi faoliyatining asosiy tamoyili hisoblanadi. Bu o'qituvchidan bolalarni sevish, ularni qadr-qimmatini hurmat qilish, sho'xliklariga bardoshli bo'lish, ularni jismoniy va axloqiy majruh etuvchi narsalarga murosasiz bo'lishni talab etadi. O'qituvchining odob-ahloqi, insonparvarligi— bolalarning kelajagi uchun g'amxo'rlik qilish, ularni hayotga ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlashga intilishida namoyon bo'ladi. Xushyorlik, pedagogik muomala, diqqat-e'tiborli bo'lish, bolalarni sevish, ularga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchini anglash, mas'uliyatli, talabchan va adolatli bo'lish, bilimdonlik, halollik, rosgo'ylik kabilar o'qituvchiga xos kasbiy axloqiy fazilatlaridir.

Pedagogik qobiliyat – bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi.

Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko'pqirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko'rsatib berdi. Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida muhim o'rin egallaydigan qator komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Kommunikativ qobiliyati - bu bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir. [4.79].

Kommunikativ qobiliyatlar, so'z, fikr – tuyg'u orqali munosabat, o'zaro fikr almashuv, fahm-idrokli bo'lish, turli qobiliyat ko'rinishlari, qirralari iqtidorligiga ega bo'lish, dinamizm (harakatchang), faol, olg'a siljish; emosional (his-tuyg'u jo'shqin), qat'iyatlik, qunt, sabot – chidamli; kelajakka ishonch (kelajakni qo'ra bilish), e'tiborli, nufuzli bo'lish (o'z ta'sirchanligi bilan mahliyo, maftun eta bilish), Pedagogik texnika o'z-o'zini boshqara olish, boshqalar bilan aloqa – munosabat o'rnatish olish kabi malakalariga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlashni qafolatlaydi.

Maxsus pedagogik qobiliyatlari ichida shundaylari ham borki, ularni aniq o'qituvchilik yoki tarbiyachilik faoliyatiga mansub deb ajratib bo'lmaydi. Negaki, ular har ikkalasi uchun ham bir hilda zarurdir. Bu narsa - pedagogik muloqot, muomaladir. Psixolog olim V.A.Kan-Kalik bunday qobiliyatni tadqiq qilib shunday yozgan edi. "Pedagoglik ishi o'z tuzilishida ikki yuzdan ortiq tuzilmani tashkil qiladi. Muloqot uning eng murakkab tomonlaridan biridir, negaki u orqali pedagogik faoliyatning eng asosiy maqsadi - o'qituvchi shaxsining o'quvchi shaxsiga t'siri amalga oshiriladi. Pedagogning muhim mahoratlaridan yana biri o'quvchilar bilan

uzoq va samarali ta'sir o'tkazishni tashkil etishidir". Odatda bu mahoratni pedagogning kommunikativ qobiliyati bilan bog'laydilar. Kasbiy pedagoglik muloqotiga ega bo'lish - shaxslararo muloqotga tegishli bo'lgan pedagog shaxsining muhim tomonidir. [5.92].

Aytib o'tish joizki, pedagogik muloqot chog'ida namoyon bo'ladigan kommunikativ qobiliyat - bu bolalar ta'lim va tarbiyasi bilan bog'liq pedagogik ta'sir doirasida o'ziga xos ravishda namoyon bo'luvchi muomala qobiliyatidir. SHulardan kelib chiqqan holda, shunday xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, insoning barcha kommunikativ qobiliyatlari ham birdek namoyon bo'lavermaydi va pedagog uchun birdek zarur bo'lmaydi. Ikkinchidan, pedagog egallashi lozim bo'lgan bir qator kommunikativ malaka va ko'nikmalar borki, ular boshqa kasbdagi kishilar uchun muhim ahamiyatga ega emas. Jumladan, insonning boshqa kishilarni tushuna olishi, o'z-o'zini anglashi, muloqot jarayonida to'g'ri baholashi, to'g'ri qabul qilishi, boshqa odamlar bilan to'g'ri munosabatga kirisha olishi, o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishidir. [4.23].

Har bir ajratilgan kommunikativ qobiliyatlar guruhini batafsil ko'rib chiqib, shu bilan birga pedagogik muloqot davrida bu qobiliyatlarning yaxshi rivojlanmaganligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ko'rsatib o'tamiz. Demak, bugun oliy ta'limda tahsil olayotgan xar bir talaba eng avvalo o'quv-tarbiya jarayonida o'zining kommunikativ qobiliyatlarini rivoltirishga e'tibor berishligi, ko'prok kitoblar mutoala qilish o'rtoqlari bilan do'stona muloqotda bo'lishi, o'zaro fikr almashishlari, mavzuga doir muammoni tahlil qilishlari lozim bo'ladi.

Insonni inson tomonidan bilish - insonni shaxs sifatida umumiy baholashdir. U odatda bir ko'rishda olingan ta'ssurotlar natijasida jamlanib, uning shaxsini ayrim tomonlari, motivlari, va kelgusi rejalarini baholash; tashqi ko'rinish va odamning ichki hissiyotlari o'zaro bog'liqligini baholash; jeslari, imo-ishoralari, mimika va pantomimikalarni o'qib bilishda namoyon bo'ladi.

Odamni o'z-o'zini bilishi o'z bilimlarini, o'z qobiliyatlarini, o'z xarakterini va boshqa shaxsning o'zidagi xususiyatlarini baholash; sirtidan qaraganda odam qanday qabul qilinadi va u boshqa odamlar ko'zida qanday namoyon bo'lishini bila olishdir.

Pedagogik muloqotning maxsus jihatining namoyon bo'lishi, pedagog tomonidan rag'batlantirish va jazolash usulining qo'llanishidir. Agar rag'batlantirish yoki jazolash xizmatga yarasha odilona bo'lsa, ular o'quvchilarning yutuqlarini qo'llab quvvatlaydilar.

Ushbu mulohazalardan ko'rinib turibdiki, talabalarda kommunikativ qobiliyatlarini shakllanishi ularda majburiyat va javobgarlik hissining tarkib topishi

bilan bogʻlikdir. Ularda ana shunday sifat va kechinmalar toʻla shakllangan boʻlsa, bilimlarni egallash yoki kasbiy kamoloti uchun hech narsa toʻsiq boʻla olmaydi. Boshlangʻich sinf oʻqituvchilar kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish mumkin boʻlgan jarayondir. Ularni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik trening yaxshi natija beradi.

Pedagogik etika yoki kommunikativ qobiliyat nuqtai nazaridan har-bir boʻlgʻusi oʻqituvchi oʻz bilim malaka va koʻnikmalari mohiyatini targʻib etuvchi maʼlumotni auditoriyaga etkazayotganda quyidagilarga eʼtibor berishi koʻzda tutiladi;

- oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi kommunikativ aloqaga eʼtibor qaratish;
- oʻqituvchi har-bir jumlaning toʻgʻri tushunilishini olishi;
- kasbiy pedagogik muloqotiga ega boʻlish -shaxslararo muloqotga kirisha olish;
- diqqat bilan tinglash texnikasiga rioya qilish;
- ovoiz va tovush imkoniyatlaridan toʻgʻri foydalana olish;
- oʻz-oʻzini anglashi, muloqot jarayonida toʻgʻri baholashi, toʻgʻri qabul qilishi;
- talabalar bilan toʻgʻri munosabatga kirisha olishi;
- oʻz-oʻziga nisbatan talabchan boʻlish;
- talabalar bilan ijtimoiy-psixologik treninglarni oʻtkazish;
- belgilangan maqsadga erishish uchun zarur bilimlarni tanlash soʻz oʻyinini va tadbirlar oʻtkazish;
- muloqot jarayonini monitoringini yaratish kabilar.

Ushbu keltirilgan masalalardan xar birining “salmogʻi”ni aniqlash, ularni yaxlitbir tizim - “majmua”ga birlashtirish-boʻlgʻusi pedagog kommunikativ qobiliyatlarini shakllanishi samarali hal etiladi.

XULOSA

Yuqorida qayd etilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, bu maqsad va vazifalarning hal etilishi oʻqituvchilarni zamon bilan hamnafas boʻlishga, oʻzining kommunikativ qobiliyatlarini shakllantiribgina qolmasdan, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq koʻra olishga oʻrgatadi. Har-bir oʻqituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan oʻz imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga oʻrgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega boʻlishni tarbiyalaydi. Pedagogik Kommunikativ qobiliyatga amal qilishda oʻqituvchi kasbiy jihatdan oʻzligini anglagan holda talaba shaxsini koʻra olishi va uning fikr oʻylari, tashvish-quvonchlariga ega boʻla olish, auditoriyaning

qiziqishlari va manfaatlarini ilmiy-ijodiy yondoshuvi hozirgi zamon o'qituvchisidan oliy insoniy fazilatlarni talab qiladi. Chunki ta'lim-tarbiya jarayoni Boshlang'ich sinf o'qituvchilardan kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilishi va o'quv jarayonining natijasi ideal bilan qiyoslanishi lozim.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son 08.10 2019 y
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. T. "O'zbekiston" NMIU, 2017 y.16.b.
3. Mirziyoyev Sh.M. ning O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni. 2017 y 38.b.
4. G'oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari.-T.1997y.79.b
5. Kan Kalik V.A. Учителей о педагогическом общении.М.: Просвещение. 1987 г. 92 с.